



Foydalanuvchi qo'llanmasi

LED LCD MONITOR

(LED Monitori*)

* LG LED monitorlari bu LED yoritkichlariga ega LCD monitorlardir.

Iltimos, qurilmangizdan foydalanishdan avval ushbu qo'llanmani diqqat bilan o'qib chiqing va undan keyinchalik foydalanish uchun saqlab qo'ying.

49WL95C

49WL95C-WE



www.lg.com

Mualliflik huquqi © 2019 LG Electronics Inc. Barcha huquqlar himoyalangan.

MUNDARIJA

LITSENZIYA	2
MUHIM EHTIYOT CHORALARI.....	3
OCHIQ MANBA DASTURI ESLATMASI.....	8
YIG'ISH VA TAYYORLASH....	8
MONITORDAN FOYDALANISH	15
FOYDALANUVCHI SOZLANMALARI.....	19
NOSOZLIKLARNI TUZATISH	25
MAHSULOT XUSUSIYATI...	27

LITSENZIYA

Har bir model turli litsenziyalarga egadir. Litsenziya haqida qo'shimcha ma'lumot olish uchun www.lg.com saytiga tashrif buyuring.



The terms HDMI and HDMI High-Definition Multimedia Interface, and the HDMI Logo are trademarks or registered trademarks of HDMI Licensing Administrator, Inc. in the United States and other countries.



The SuperSpeed USB Trident logo is a registered trademark of USB Implementers Forum, Inc.



VESA, VESA logo, DisplayPort compliance logo and DisplayPort compliance logo for dual-mode source devices are all registered trademarks of the Video Electronics Standards Association.

* USB Type-C™ and USB-C™ are trademarks of USB Implementers Forum.

MUHM EHTIYOT CHORALARI

Bu qurilma sizning xavfsizligingizni kafolatlash uchun yaratilgan va ishlab chiqarilgan, biroq undan noto'g'ri foydalanish elektr toki urishi yoki yong'in xatarlariga olib kelishi mumkin. Ushbu displeyga ichki qurilgan barcha himoya mexanizmlarining to'g'ri ishlashi uchun uni o'rnatish, undan foydalanish va xizmat ko'rsatishda quyidagi asosiy qoidalarga amal qiling.

Xavfsizlik to'g'risida

Faqat ushbu qurilma bilan birga berilgan elektr tarmog'iga ulash shnuridan foydalaning. Boshqa elektr tarmog'iga ulash shnuridan foydalanganingizda agar u ta'minotchi tomonidan berilmagan bo'lsa, uning tegishli milliy standartlarga mosligiga ishonch hosil qiling. Agar elektr tarmog'iga ulash shnuri qandaydir tarzda shikastlangan bo'lsa, uni almashtirish uchun ishlab chiqaruvchi yoki vakolatli ta'mirlash markaziga murojaat qiling.

Juftlash qurilmasidan qurilmani uzish uchun foydalaniladi.

Qurilmani o'zi ulanadigan devor rozetkasiga yaqin o'rnatilganligiga va rozetkaga osongina yetish mumkinligiga ishonch hosil qiling.

Displeyni faqat ushbu qo'llanmadagi texnik xususiyatlarda yoki displeyda ko'rsatilgan quvvat manbai orqali ishlating. Agar siz uyingizda qanday quvvat ta'minotiga ega ekanligingizga ishonchingiz komil bo'lmasa, dilingizga murojaat qiling.

Ortiqcha yuklanishga ega bo'lgan o'zgaruvchan tokli rozetkalar va uzaytirma kabellar xavflidir. Izolyatsiyasi buzilgan kabellar va singan vilkalar ham shundaydir. Ular elektr toki urishi yoki yong'in xatarlariga olib kelishi mumkin. Almashtirish uchun xizmat ko'rsatuvchi texnika murojaat qiling.

Qurilma devordagi rozetkaga ulangan bo'lar ekan hattoki o'chirilganda ham elektr quvvatidan uzilmaydi.

Displeyni ochmang:

- Uning ichida foydalanuvchi texnik xizmat ko'rsatuvchi qismlari mavjud emas.
- Elektr ta'minoti o'chirilgan bo'lsa ham displeyning ichida Xavfli yuqori kuchlanishlar mavjud.
- Displeyingiz to'g'ri ishlamayotgan bo'lsa, dilingizga murojaat qiling.

Shaxsiy shikastlanishlarning oldini olish:

- To'g'ri mahkamlanmagan bo'lsa, displeyni qiya tokchalarga o'rnatmang.
- Faqat ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya qilingan tayanchlardan foydalaning.
- Mahsulot ustiga buyumlarni tashlamang yoki uni hech qanday ta'sir ostiga qo'ymang. Mahsulot ekraniga o'yinchoqlar yoki boshqa buyumlarni otmang. Bu odamlarning jarohatlanishi, mahsulot bilan bog'liq muammolar va displeyning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Yong'in chiqishi va boshqa xatarlarning oldini olish:

- Xonadan ko'proq muddatga chiqib ketayotgan hollarda displeyni doimo o'chirib qo'ying. Uydan chiqib ketayotgan vaqtda hech qachon displeyni yoniq holda qoldirmang.
- Bolalarning display korpusi tirqishlariga suyuqliklarni quyishlari yoki buyumlarni tiqishlariga yo'l qo'ymang. Ayrim ichki qismlarda xavfli yuqori kuchlanishlar mavjud.
- Ushbu display uchun mo'ljallanmagan aksessuarlarni qo'shmang.
- Display uzoq vaqt qarovsiz qoldirilishi kerak bo'lgan hollarda uni devordagi rozetkadan uzib qo'ying.
- Momaqaldiroq yoki chaqmoq vaqtida elektr tarmog'iga ulash va signal kabellariga tegmang, chunki ular xavfli bo'lishi mumkin. Bu elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.

O'rnatish to'g'risida

Elektr tarmog'iga ulash shnurining ustiga biror narsaning qo'yilishi yoki uni bosib o'tishiga yo'l qo'ymang hamda displeyni elektr tarmog'iga ulash shnuri shikastlanishi mumkin bo'lgan joylarga joylashtirmang.

Displaydan bevosita suvga yaqin bo'lgan joylarda, jumladan vanna, unitaz, rakovina, kir yuvish tog'ora kabilar yaqinida, nam yerto'lada yoki hovuzlar yaqinida foydalanmang.

Displaylar ishlash vaqtida hosil bo'lgan issiqlikni chiqarib yuborishga imkon beruvchi havo almashtirish tirqishlari bilan jihozlangan. Agar ushbu tirqishlar to'silib qolsa, ichki hosil bo'lgan issiqlik yong'in xatarlariga olib kelishi mumkin bo'lgan xatoliklarni vujudga keltirishi mumkin.

Shuning uchun HECH QACHON:

- Displeyni karavot, divan, gilam kabilar ustiga joylashtirish orqali quyi ventilyatsiya tirqishlarini to'sib qo'ymang.
- Agar yetarli darajada havo almashishi ta'minlanmasa, displeyni ichki qurilgan korpusga joylashtirmang.
- Tirqishlarni latta yoki boshqa narsalar bilan berkitib qo'ymang.
- Displeyni radiator yoki boshqa issiqlik manbai yaqini yoki ustiga joylashtirmang.

Faol Matritsali LCD-ni qattiq narsalar bilan artmang yoki urmang, chunki bu Faol Matritsali LCD-ni tirnashi, buzishi yoki butunlay ishdan chiqarishi mumkin. LCD ekranini barmoqlaringiz bilan uzoq vaqt bosib turmang, chunki bu qoldiq tasvirlarni hosil qilishi mumkin.

Ayrim nuqtali nuqsonlar ekrandagi Qizil, Yashil yoki Ko'k dog'lar sifatida ko'rinishi mumkin.

Biroq bu displeyning ishlashiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.

LCD displayingizda eng yaxshi sifatidagi tasvirlarni olish uchun iloji boricha tavsiya qilingan tasvir aniqligidan foydalaning. Tasviya qilinganidan boshqa istalgan rejimdan foydalanilganida ekranda ayrim masshtablangan yoki qayta ishlangan tasvirlar paydo bo'lishi mumkin. Biroq bu belgilangan tasvir aniqligiga ega bo'lgan LCD panelining o'ziga xos xususiyatidir.

Monitorda harakatsiz tasvirlarni uzoq vaqt namoyish qilish monitorda qoldiq tasvirlarni yoki dog'larni qoldirishi mumkin. Bu muammoning oldini olish uchun ekran saqlagichdan foydalaning va mahsulotdan foydalanilmayotganda uni o'chirib qo'ying. Uzoq vaqt davomida foydalanishdan hosil bo'lgan qoldiq tasvir yoki dog'lar ushbu mahsulotga berilgan kafolat bilan qamrab olinmaydi.

Ekranning old va yon tomonlariga metall buyumlar bilan urmang yoki tirnamang.

Aks holda bu ekranni shikastlashi mumkin.

Siljitish uchun panelni oldinga qarating va uni ikkala qo'lingiz bilan ushlang. Agar mahsulotni tushirib yuborsangiz, shikastlangan mahsulot elektr toki urishiga yoki yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.

Ta'mirlash uchun vakolatli xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.

Yuqori haroratlar va namlik ta'siriga uchrashiga yo'l qo'ymang.

Agar ushbu mahsulot moy yoki moyli tuman ta'siriga uchrashi mumkin bo'lsa, uni devorga o'rnatmang.

- Bu mahsulotni buzishi va uning tushib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

Yaltiroq hoshiyali displeylar uchun foydalanuvchi displeyni qayerga joylashtirish to'g'risida ham o'ylashi kerak, chunki hoshiya atrofdagi yorug'lik va yorqin yuzalarni qaytargan holda xalaqitlar hosil qilishi mumkin.

Monitor yaqinida elektr pashshao'ldirgich kabi yuqori kuchlanishda ishlaydigan jihozlardan foydalanmang.

- Kuchli elektr oqimi monitor ishlashida nosozlikni keltirib chiqarishi mumkin.

AC adapteri va quvvat uchun ehtiyot choralari

Agar mahsulot ichiga suv yoki boshqa moddalar kirib qolsa (TV, monitor, quvvat manbaiga ulash shnuri yoki AC adapteri), darhol quvvat manbaiga ulash shnurini uzib va xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.

- Aks holda bu mahsulotga shikast yetkazilganligi sababli yong'in chiqishi yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.

Elektr manbaiga ulash vilkasi yoki AC adapteriga nam qo'llaringiz bilan tegmang. Agar vilka kontaktlari nam yoki chang bo'lsa, foydalanishdan oldin ularni arting va quriting.

- Aks holda bu yong'in yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.

Quvvat manbaiga ulash shnurini AC adapteriga to'liq kirgizganligingizni tekshiring.

- Agar bo'sh kiritilgan bo'lsa, yomon ulanish yong'in yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.

LG Electronics, Inc tomonidan ta'minlangan yoki tasdiqlangan quvvat manbaiga ulash shnurlari va AC adapterlaridan foydalanishga ishonch hosil qiling.

- Tasdiqlanmagan mahsulotlardan foydalanish yong'in yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.

Quvvat manbaiga ulash shnurini uzish paytida doimo uni vilkadan torting. Quvvat manbaiga ulash shnurini ortiqcha kuch bilan bukmang.

- Elektr liniyasi shikastlanishi va bu elektr toki urishi yoki yong'inga olib kelishi mumkin.

Quvvat manbaiga ulash shnuri yoki AC adapterini bosmang, yoki uning ustiga og'ir narsalarni (elektron jihozlar, kiyim va hokazo) qo'ymaslikka ehtiyot bo'ling.

Quvvat manbaiga ulash shnuri yoki AC adapterini o'tkir narsalar bilan buzmaslikka ehtiyot bo'ling.

- Shikastlangan quvvat manbaiga ulash shnurlari yong'in yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.

Hech qachon quvvat manbaiga ulash shnuri yoki AC adapterini ochmang, ta'mirlamang yoki o'zgartirmang.


- Bu yong'in yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.

Rozetka, AC adapteri va elektr manbaiga ulash vilkasi kontaktlarini chang va boshqalardan toza saqlang.

- Bu yong'inni keltirib chiqarishi mumkin.

Tozalash to'g'risida

- Display ekranini yuzasini tozalashdan avval elektr tarmog'iga ulash kabelini rozetkadan uzing.
- Biroz namlangan (ho'l bo'lmagan) lattadan foydalaning. Display ekraniga to'g'ridan-to'g'ri aerosollardan foydalanmang, chunki ortiqcha seplash elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.
- Mahsulotni tozalaganda elektr tarmog'iga ulash kabelini rozetkadan uzing va tinalishlarning oldini olish uchun yumshoq latta bilan yengil arting. Nam latta bilan tozalamang yoki suv hamda boshqa suyuqliklarni to'g'ridan-to'g'ri mahsulot ustiga sepmang. Elektr toki urishi yuz berishi mumkin. (Benzol, bo'yoq erituvchilar yoki spirt singari kimyoviy moddalardan foydalanmang)
- Yumshoq lattaga 2 tadan 4 marta gacha suv seping va undan old karkasni tozalashda foydalaning; faqat bir yo'nalishda arting. Haddan tashqari ortiqcha namlik dog'larni hosil qilishi mumkin.



Qayta qadoqlash to'g'risida

- Karton va boshqa qadoqlash materiallarini tashlab yubormang. Ular qurilmani tashish uchun eng yaxshi konteyner hisoblanadi. Qurilmani boshqa joyga ko'chirganda uni asl materialiga qayta qadoqlang.

OCHIQ MANBA DASTURI ESLATMASI

GPL, LGPL, MPL va ushbu mahsulotda mavjud bo'lgan boshqa ochiq kod litsenziyalari ostida manba kodini olish uchun <http://opensource.lge.com> saytiga tashrif buyuring.

Ochiq turdagi kodlarga qo'shimcha ravishda barcha tegishli litsenziya shartlari, kafolatlarning rad qilinishlari va mualliflik huquqlari to'g'risidagi bildirishnomalarni ham yuklab olish mumkin.

LG Electronics opensource@lge.com manziliga so'rov yuborilgan hollarda bunday yetkazib berish xarajatlarini (jumladan, media, jo'natish va qayta ishlash xarajatlari) qoplovchi to'lov evaziga CD-ROM orqali ham ochiq turdagi kodni yetkazib beradi.

Bu taklif mahsulotni yetkazib berilgandan so'ng uch yil ichida amal qiladi. Bu taklif ushbu ma'lumotni olgan har kim uchun amal qiladi.

YIG'ISH VA TAYYORLASH



DIQQAT

- Xavfsizlik va mahsulotning ishlashini ta'minlash uchun doim asl nusxali komponentlardan foydalaning.
- Mahsulot kafolati qalbaki komponentlardan foydalanish sababli zarar yoki shikastlanishni qoplamaydi.
- Taqdim qilingan komponentlardan foydalanish tavsiya etildi.
- Ushbu hujjatdagi tasvirlar oddatdagi jarayonlarni aks etadi, shuning uchun ular haqiqiy mahsulotdan farq qilishi mumkin.
- Mahsulotni yig'ishda qotiriladigan joylariga yot moddalar (moy, smazka) surtmang. (Buning natijasida mahsulotga shikast yetishi mumkin.)
- Vintlarni mahkamlashda me'yordan ortiq kuch ishlatish monitoring shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Bunday shikastlanishni mahsulotga berilgan kafolat qoplamaydi.
- Monitorni shunchaki asosidan ushlab, teskarisini ag'darib tashib yurmang. Monitor asosdan chiqib ketishi va sog'liqqa zarar yetkazishi mumkin.
- Monitorni ko'targanda yoki tashiganda uning ekranini tegmang. Monitor ekraniga ishlatilgan kuch uning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

❗ ESLATMA


- Komponentlar bu yerda ko'rsatilgandan farq qilishi mumkin.
- Mahsulotning ishlashini yaxshilash maqsadlarida ushbu qo'llanma tarkibidagi barcha ma'lumot va xususiyatlari oldindan ogohlantirishsiz o'zgartirilishi mumkin.
- Qo'shimcha aksessuarlarni xarid qilish uchun elektrojihozlarni sotuvchi do'kon yoki onlayn do'konning saytiga tashrif buyuring, yoki ushbu mahsulotni sizga sotgan sotuvchiga murojaat qiling.
- Quvvat manbaiga ulash shnuri mintaqaga bog'liq bo'lib farq qilishi mumkin.

Qo'llab-quvvatlanadigan drayverlar va dasturiy ta'minot

Siz so'nggi versiyani LGE veb-saytidan (www.lg.com) yuklab olishingiz va o'rnatishingiz mumkin.

- **Drayverlar va dasturiy ta'minot: Monitor drayveri / OnScreen Control / Dual Controller**
 - Monitor drayveri: Tavsiya etiladi
 - OnScreen Control: Tavsiya etiladi
 - Dual Controller: Ixtiyoriy


Mahsulot va tugma ta'rifi



Joystik tugmasidan foydalanish

Siz monitorning funksiyalaridan joystik tugmasini bosib yoki barmoqlaringiz bilan o'ngga/chapga/pastga/tepaga yo'naltirish yordamida osongina boshqarishingiz mumkin.

Asosiy funksiyalar



A

Yoqish: Monitorni yoqish uchun barmog'ingiz bilan joystikni bir marta bosing.

B

O'chirish: Monitorni o'chirish uchun barmog'ingiz bilan joystikni 5 soniyadan ortiq bosib turing.

C

Ovoz balandligi Boshqaruv: Joystikni o'ngga/chapga yo'naltirish yordamida ovoz balandligini boshqarishingiz mumkin.


❗ ESLATMA

- Joystik tugmasi monitorning orqa tomonida joylashgan.

Monitorni tashish va ko'tarish


Monitorni tashish yoki ko'tarishda, uning turi va o'lchamlaridan qat'iy nazar, tirnash yoki shikastlanishning oldini olish va xavfsiz tarzda tashish uchun quyidagi yo'riqnomalarga amal qiling.

- Tashishdan avval monitorni asl nusxali qutisiga joylashtirish tavsiya etiladi.
- Monitorni ko'chirishdan avval quvvat manbaiga ulash shnuri va barcha boshqa kabellarni uzing.
- Monitor korpusining yon va tagidagi qismlarini mahkam ushlang. Panelga qo'lingizni tekkizmang.
- Monitorni ushlaganda tirnashning oldini olish uchun ekran sizga qarama-qarshi tomonga qarab turishi kerak.
- Monitorni tashish vaqtida uni zarbalar yoki ortiqcha tebranishlar ta'siriga qo'ymang.
- Monitorni ko'targanda, vertikal holatda tuting va hech qachon yon tomonga ag'darmang yoki engashtirmang.



⚠️ DIQQAT


- Iloji boricha monitor ekraniga qo'l tekkizmaslikka harakat qiling.
- Aks holda ekran yoki tasvirni yaratishda ishtirok etuvchi piksellar shikastlanishi mumkin.



- Agar siz monitor panelidan tayanch asosisiz foydalansangiz, uning joystik tugmasi monitorning mahkam o'rnatilishiga va yiqilishiga sabab bo'lishi, bu esa monitorning shikastlanishi yoki odamlarning jarohatlanishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari bu joystik tugmasining noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin.

Stol ustiga o'rnatish

- Monitorni ko'taring va stol ustiga vertikal holatda joylashtiring. Yetarli ventilyatsiyani ta'minlash uchun monitorni devordan kamida 100 mm uzoqlikda joylashtiring.




A: 100 mm

⚠️ DIQQAT

- Monitorni ko'chirish yoki o'rnatishdan avval quvvat manbaiga ulash shnurini ajrating. Elektr toki urishi xavfi mavjud.
- Mahsulot to'plami bilan berilgan elektr manbaiga ulash shnuridan foydalaning va uni yerga ulangan rozetkaga ulang.
- Agar sizga boshqa elektr manbaiga ulash shnuri kerak bo'lsa, mahalliy dilerga yoki sizga yaqin joylashgan chakana savdo do'koniga murojaat qiling.

Tayanch balandligini sozlash

- 1 Tayanch asosiga o'rnatilgan monitorni vertikal holatga o'rning.
- 2 Xavfsizlik uchun monitorni ikkala qo'lingiz bilan ushlang.
- 3 Balandlikni 110,0 mm gacha sozlash mumkin.



⚠️ OGOHLANTIRISH

- Ekraning balandligini sozlaganda barmoqlaringizni shikastlamaslik uchun qo'lingizni tayanch ustiga qo'ymang.


Egilishni sozlash

- 1 Tayanch asosiga o'rnatilgan monitorni vertikal holatga o'rning.
- 2 Ekran egilishini sozlang.


Qulay ko'rish uchun ekran egilishini -5° dan 15° gacha oldinga yoki orqaga sozlash mumkin.

⚠ OGOHLANTIRISH

- Ekranni sozlash vaqtida barmoqlarga shikast yetishining oldini olish uchun quyida ko'rsatilgani kabi monitor ramasining quyi qismidan ushlamang.
- Monitor egilishini sozlaganda ekran yuzini tegish yoki bosishdan ehtiyot bo'ling.

**⚠ ESLATMA**


- 15 gradus chapga yoki o'ngga buring va o'zingizga ko'rinishni moslash uchun monitor burchagini sozlang.

**Kensington qulfidan foydalanish**

Kensington xavfsizlik tizimining ulovchisi monitorning orqa tarafida joylashgan.

O'rnatish va foydalanish bo'yicha qo'shimcha ma'lumot olish uchun Kensington qulfining foydalanuvchi qo'llanmasiga murojaat qiling yoki <http://www.kensington.com> saytiga tashrif buyuring.

Kensington xavfsizlik tizimining kabelidan foydalanib, monitorni stolga ulang.

**⚠ ESLATMA**

- Kensington xavfsizlik tizimi ixtiyoriy hisoblanadi. Siz qo'shimcha aksessuarlarni elektroihozlarni sotuvchi ko'p do'konlardan olishingiz mumkin.

Devorga o'rnatish plastinasini o'rnatish


Bu monitor devorga o'rnatish plastinasi yoki boshqa mos keluvchi qurilmalarning xususiyatlariga javob beradi.

! ESLATMA

- Devorga o'rnatish plastinasi alohida sotiladi.
- O'rnatish bo'yicha qo'shimcha ma'lumot olish uchun devorga o'rnatish plastinasining o'rnatish yo'riqnomasini ko'ring.
- Devorga o'rnatish plastinasini o'rnatganda juda ko'p kuch ishlatishdan ehtiyot bo'ling, chunki bu ekranning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
- Biriktirishni teskari tartibda bajarish orqali monitorni devorga montajlashdan oldin standni olib tashlang.

Devorga o'rnatish

Yetarli ventilyatsiyani ta'minlash uchun monitorni devordan kamida 100 mm uzoqlikda va uning har bir tomonidan o'rtacha 100 mm bosh joy qoldirib o'rnatish. O'rnatish bo'yicha batafsil yo'riqnomalarni mahalliy do'kondan olish mumkin. Boshqa yo'li, devorga o'rnatish engashuvchi kronshteynini qanday o'rnatishni bilish uchun uning qo'llanmasiga qarang.



A: 100 mm

Monitorni devorga o'rnatish uchun devorga o'rnatish kronshteynini (ixtiyoriy) monitorning orqasiga biriktiring.

Devorga o'rnatish kronshteyni monitor va devorga mustahkam qotirilganligiga ishonch hosil qiling.


- Devorga o'rnatish (mm): 100 x 100
- Standart vint: M4 x L10
- Vintlar soni: 4

! ESLATMA

- VESA standartiga to'g'ri kelmaydigan vint mahsulotga zarar yetkazishi va monitorning qulashiga sabab bo'lishi mumkin. LG Electronics standartga javob bermagan vintlardan foydalanishga tegishli bo'lgan hech qanday baxtsiz hodisa uchun javobgar emas.
- Devorga o'rnatish to'plami qo'llanma va barcha kerakli qismlarni o'z ichiga oladi.
- Devorga o'rnatish kronshteyni ixtiyoriy hisoblanadi. Siz qo'shimcha aksessuarlarni mahalliy dileringizdan olishingiz mumkin.
- Har bir devorga o'rnatish kronshteyni uchun vint uzunligi farq qilishi mumkin. Agar siz standart uzunlikdan uzunroq vintlardan foydalansangiz, mahsulotning ichiga zarar yetishi mumkin.
- Qo'shimcha ma'lumot uchun devorga o'rnatish kronshteynining foydalanuvchi qo'llanmasiga qarang.

⚠️ DIQQAT

- Elektr toki urishining oldini olish uchun monitorni ko'chirish yoki o'rnatishdan avval quvvat manbaiga ulash shnurini ajrating.
- Monitorni shiftga yoki qiya devorga o'rnatasangiz, u qulab tushishi va sog'liqqa zarar yetkazishi mumkin. Vakolatli LG devorga mahkamlovchisidan foydalaning va mahalliy diller yoki malakali xodimlarga murojaat qiling.
- Shikast yetmasligi uchun bu qurilma devorga o'rnatish ko'rsatmalariga rioya qilgan holda mahkamlanishi lozim.
- Vintlarni mahkamlashda me'yordan ortiq kuch ishlatish monitoring shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Bunday shikastklanishni mahsulotga berilgan kafolat qoplamaydi.
- VESA standartlariga mos keluvchi devorga o'rnatish kronshteyni va vintlaridan foydalaning. Yaroqsiz komponentlardan foydalanish yoki noto'g'ri foydalanish sababli buzilishni mahsulotga berilgan kafolat qoplamaydi.
- Monitoring orqasidan o'lchasa, har bir o'rnatilgan vintning uzunligi 8 mm yoki undan kam bo'lishi shart.



A: Devorga o'rnatish plastinasi

B: Monitoring orqasi

C: Standart vint

D: Maks. 8 mm

MONITOR DAN FOYDALANISH

- Ushbu qo'llanmadagi rasmlar haqiqiy mahsulotdan farq qilishi mumkin. Joystik tugmasini bosib, [Settings] → [Input]-ga o'tib, kiritish variantlarini tanlang.

DIQQAT

- Agar siz LG tomonidan tasdiqlanmagan umumiy kabellardan foydalansangiz, ekran ko'rsatmasligi yoki tasvirlarda xalaqitlar mavjud bo'lishi mumkin.
- Ekranni uzoq vaqt bosib turmang. Bu tasvirning buzilishiga olib kelishi mumkin.
- Ekranda harakatsiz tasvirlarni uzoq vaqtga joylashtirmang. Bu qoldiq tasvirga olib kelishi mumkin. Imkon bo'lsa, ekran lavhasidan foydalaning.
- Quvvat manbaiga ulash shnurini devordagi rozetkaga ulaganda, yerga ulangan (3-teshikli) udlinitel yoki yerga ulangan rozetkadan foydalaning.
- Harorati past bo'lgan joyda yoqilganda, monitor miltillab ishlashi mumkin. Bu oddiy holdir.
- Ba'zan ekranda qizil, yashil yoki ko'k nuqtalar ko'rinishi mumkin. Bu oddiy holdir.

Kompyuterga ulash

- Ushbu monitor *Plug and Play funksiyasini qo'llab-quvvatlaydi.
- * Plug and Play: Hech narsalarni qayta konfiguratsiya yoki hech qanday drayverlarni o'rnatmasdan, kompyuterga biron-bir qurilmani ulashga imkon beruvchi funksiyadir.

HDMI ulanishi

Raqamli video va audio signallarni kompyuterdan monitorga o'tkazadi.

DIQQAT

- DVI-dan HDMI-ga / DP-dan (DisplayPort) HDMI-ga kabelidan foydalanish moslik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.
- HDMI logotipiga ega kafolatlangan kabeldan foydalaning. Agar kafolatlanmagan HDMI kabelidan foydalansangiz, ekran namoyish qilmasligi yoki ulanishda xatolik yuzaga kelishi mumkin.
- Tavsiya qilingan HDMI kabeli turlari
 - Yuqori tezlikda ishlaydigan HDMI®/™ kabeli
 - Ethernet tamoq ulanishiga ega yuqori tezlikda ishlaydigan HDMI®/™ kabeli

DisplayPort ulanishi

Raqamli video va audio signallarni kompyuterdan monitorga o'tkazadi.

❗ ESLATMA

- Kompyuterdagi DP(DisplayPort) versiyasiga qarab video yoki audio chiqish mavjud bo'lmisligi mumkin.
- Mini DisplayPort chiqish grafika platasidan foydalansangiz, Mini DP va DP portlarini ulaydigan (Mini DisplayPort - DisplayPort) kabeldan yoki DisplayPort1.4 ga mos keladigan ulagichdan foydalaning. (Alohida sotiladi)

USB-C ulanishi

Raqamli video va audio signallarni kompyuterdan monitorga o'tkazadi.

❗ ESLATMA

- PD (Quvvat yetkazib berish), DP muqobil rejimi (DP USB-C orqali) va USB ma'lumotlari USB-C porti orqali qo'llab-quvvatlanadi.
- Ulangan qurilmaning texnik xususiyatlari va muhitga bog'liq ravishda xususiyatlar to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- USB-C porti Monitorning quvvat manbai uchun emas, balki ShK quvvat manbai uchundir. Monitorga quvvatni ta'minlab berish uchun Adapterni ulang.

AV qurilmalarini ulash

HDMI ulanishi

Raqamli video va audio signallarini AV qurilmasidan monitorga o'tkazadi.

❗ ESLATMA

- DVI-dan HDMI-ga / DP-dan (DisplayPort) HDMI-ga kabelidan foydalanish moslik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.
- HDMI logotipiga ega kafolatlangan kabeldan foydalaning. Agar kafolatlanmagan HDMI kabelidan foydalansangiz, ekran namoyish qilmasligi yoki ulanishda xatolik yuzaga kelishi mumkin.
- Tavsiya qilingan HDMI kabeli turlari
 - Yuqori tezlikda ishlaydigan HDMI®/TM kabeli
 - Ethernet tamoq ulanishiga ega yuqori tezlikda ishlaydigan HDMI®/TM kabeli

Tashqi moslamalarni ulash

USB qurilma ulanishi

Mahsulotdagi USB porti USB xabi sifatida ishlaydi.


❗ ESLATMA

- Mahsulotdan foydalanish uchun ulashdan oldin Windows yangilangan bo'lishi uchun barcha yangilovlarni o'rning.
- Tashqi moslamalar alohida sotiladi.
- Klaviatura, sichqoncha yoki USB qurilmasini USB porti orqali ulash mumkin.
- Qurilmaga bog'liq ravishda zaryadlash tezligi farq qilishi mumkin.
- Monitorning USB Downstream portidan foydalanish uchun foydalanuvchi monitorning Upstream portini Xost ShKga "USB C-C kabeli" yoki "USB C-C cable + USB C-A jinsi" yordamida ulashi zarur.
- Monitorning Upstream porti va Xost ShK orasida "USB C-C kabeli" ulanganda monitorning Downstream porti USB 2.0 qurilmasini qo'llab-quvvalaydi.
- Monitorning Upstream porti va Xost ShK orasida "USB C-C kabeli + USB C-A jinsi" ulanganda monitorning Downstream porti USB 3.0 qurilmasini qo'llab-quvvalaydi. Lekin Xost ShK USB 3.0 funksiyasini qo'llab-quvvatlashi lozim.
- Monitorning Upstream porti va Xost ShK orasida "USB C-C kabeli + USB C-A jinsi" ulanganda, tezkor bo'lmagan zaryadlash maqsadlari uchun USB portiga ulanish tavsiya etiladi.

⚠ DIQQAT

USB qurilmasidan foydalanishdagi ehtiyot choralar

- Avtomatik tanib olish dasturi o'rnatilgan yoki o'z drayveridan foydalanuvchi USB qurilmasi tanib olinmasligi mumkin.
- Ayrim USB qurilmalari qo'llab-quvvatlanmasligi yoki to'g'ri ishlamasligi mumkin.
- Quvvat bilan ta'minlangan USB xab yoki qattiq diskdan foydalanish tavsiya qilinadi. (Agar quvvat ta'minoti mos bo'lmasa, USB qurilmasi to'g'ri tanib olinmasligi mumkin.)
- Agar 40 mm'dan uzun bo'lgan USB qurilma yon tomondagi USB portga ulangan bo'lsa, qo'lga olinganda monitorga shikast yetishi mumkin. Uni orqa tomondagi USB portga ulang.



A: 40 mm

Quloqliklarni ulash

Quloqlik porti orqali tashqi moslamani monitorga ulaydi.

❗ **ESLATMA**

- Tashqi moslamalar alohida sotiladi.
- Kompyuter va tashqi moslamaning audio sozlanmalariga bog'liq ravishda quloqlik va karnay funksiyalari chegaralangan bo'lishi mumkin.
- Agar siz Bukilgan naushniklardan foydalansangiz, boshqa tashqi moslamani ulashda muammo tug'ilishi mumkin. Shuning uchun To'g'ri naushniklardan foydalanish tavsiya etiladi.



Bukilgan



To'g'ri
(Tavsiya etiladi)

FOYDALANUVCHI SOZLANMALARI

❗ ESLATMA


- Monitoringidagi OSD (Ekrandagi display) ushbu qo'llanmada ko'rsatilganidan bir oz farq qilishi mumkin.

Asosiy menyularni faollashtirish



- 1 Monitoring orqa tomonida joylashgan joystick tugmasini bosing.
- 2 Variantlarni belgilash uchun joystickni yuqoriga/pastga va chapga/o'ngga suring.
- 3 Asosiy menyudan chiqish uchun joystick tugmasini yana bir marta bosing.

Joystick tugmasi



A

- Asosiy menyu o'chirilgan: Asosiy menyuni faollashtiradi.
- Asosiy menyu yoqilgan: Asosiy menyudan chiqadi. (Monitorni o'chirish uchun tugmani 5 soniyadan ortiq ushlab turing: Bu yo'l bilan siz monitorni istagan vaqtda ochirishingiz mumkin, shu jumladan, OSD (display) yoqilganda ham.)


B

- Asosiy menyu o'chirilgan: Monitoring ovoz balandligi darajasini sozlaydi. (◀, ▶)
- Asosiy menyu yoqilgan: [Input] xususiyatiga kiradi. (◀) / [Settings] xususiyatiga kiradi. (▶)

C

- Asosiy menyu o'chirilgan: Joriy kiritish bo'yicha ma'lumotlarni namoyish qiladi. (▲, ▼)
- Asosiy menyu yoqilgan: Monitorni o'chiradi. (▲) / [Picture Mode] xususiyatiga kiradi. (▼)

Asosiy menu funksiyalari



Asosiy menu	Tavsifi
A: [Power Off]	Monitorni o'chiradi.
B: [Input]	Kiritish rejimini o'rnatadi.
C: [Settings]	Ekran sozlanmalarini o'rnatadi.
D: [Picture Mode]	Rasm rejimini o'rnatadi.
E: [Exit]	Asosiy menyudan chiqadi.

Menu sozlanmalari

- 1 OSD menyusini ko'rish uchun monitorning orqa tomonida joylashgan joystick tugmasini bosib va undan so'ng [Settings] ni kiritib.
- 2 Variantlarni belgilash uchun joystickni yuqoriga/pastga va chapga/o'ngga suring.
- 3 Yuqori menyuga qaytish yoki boshqa menu elementlarini o'rnatish uchun joystickni ◀ ga o'tkazib yoki uni (⏏) bosib turing.
- 4 Agar siz OSD menu (display menyusi)dan chiqmoqchi bo'lsangiz, toki chiqib ketmaguncha, joystickni ◀ ga bosib.



[Quick Settings]



[Input]



[Picture]



[General]

⚠ ESLATMA

- : Yoqish
- : O'chirish

[Quick Settings]

[Settings] → [Quick Settings]

- [Brightness]: Ekran ravshanligini sozlaydi.
- [Auto Brightness]: Yon-atrof yoritilishiga qarab yorqinlikni avtomatik tarzda optimallashtiradi.
- [Contrast]: Ekraning kontrastini sozlaydi.
- [Volume]: Ovoz balandligi darajasini sozlaydi.
 - Siz [Volume] menyusida joystik tugmasini ▼ ga yo'naltirib, [Mute] / [Unmute]ni sozlashingiz mumkin.
- [Color Temp]: O'z rang haroratingizni o'rnatadi.
 - [Custom]: Foydalanuvchi qizil, yashil va ko'k ranglarni sozlashi mumkin.
 - [Warm]: Ekran rangini qizg'ish tusga o'rnatadi.
 - [Medium]: Ekran rangini qizil bilan ko'k rang oralig'ida o'rnatadi.
 - [Cool]: Ekran rangini ko'kimtir rangga o'rnatadi.

[Input]

[Settings] → [Input]

- [Input List]: Kirish rejimini tanlaydi.
- [Aspect Ratio]: Ekran tomonlarining nisbatini sozlaydi. Tavsiya qilingan aniqlik darajasida displey [Full Wide] va [Original] opsiyalari uchun bir xil ko'rinishi mumkin.
 - [Full Wide]: Kiruvchi signaldan qat'iy nazar videoni keng ekranda ko'rsatadi.
 - [Original]: Kiruvchi video signaldagi tomonlar nisbatiga mos video ko'rsatadi.
 - [Just Scan]: Tomonlarining nisbatini aslidan boshqarib bo'lmaydi.
 - [Cinema 1]: Ekranni tomonlar nisbati 32:9 gacha kengaytiradi.
 - [Cinema 2]: Ekranni tomonlar nisbati 32:9 gacha kengaytiradi, shuningdek, subtitrlar tagidagi qora teng burchaklarni ham.
- [PBP / PIP]: Turli PBP yoki PIP kombinatsiyalarini tanlashingiz mumkin.

[PBP / PIP]

- [Input List]: Asosiy va ikkilamchi kiritish ekranlarini ko'rsatadi

		Qo'shimcha ekran			
PBP / PIP ulanish		HDMI 1	HDMI 2	DP	USB-C
Asosiy ekran	HDMI 1	-	O	O	O
	HDMI 2	O	-	O	O
	DP	O	O	-	O
	USB-C	O	O	O	-

- [Aspect Ratio]: Ekran tomonlarining nisbatini sozlaydi.
 - [Full Wide]: Kiruvchi video signaldan qat'iy nazar videoni PBP / PIP ekranda ko'rsatadi.
 - [Original]: Videoni PBP / PIP ekranida video signaldagi tomonlar nisbatida ko'rsatadi.
- [PBP / PIP]: Turli PBP yoki PIP kombinatsiyalarini tanlashingiz mumkin.
- [PIP Size]: PIP Tag oynasi o'lchamini o'rnatadi. ([Small] / [Medium] / [Large])
- [Main/Sub Screen Change]: [PBP / PIP] rejimida asosiy va qo'shimcha ekranlarni almashtiradi.
- [Sound Out]: [PBP / PIP] rejimida audio chiqishni tanlang.

! ESLATMA

- [PBP / PIP] funksiyasi ishlatilmayotgan bo'lsa, [PIP Size], [Main/Sub Screen Change] va [Sound Out] o'chiriladi.

[Picture]**[Settings] → [Picture] → [Picture Mode]****! ESLATMA**

- Kirish signali asosida o'rnatilishi mumkin bo'lgan [Picture Mode].

SDR (HDR emas) signalida [Picture Mode]

- [Custom]: Foydalanuvchiga har bir elementni sozlashga imkon beradi. Asosiy menyuning rang rejimi sozlanishi mumkin.
- [Vivid]: Kontrast, yorqinlik va tiniqlikni kuchaytirish orqali ekranni savdo muhiti uchun optimallashtiradi.
- [HDR Effect]: Ekranni yuqori dinamik diapazoni uchun optimallashtiradi.
- [Reader]: Ekranni hujjatlarni o'qish uchun optimallashtiradi. Siz OSD menyusidan ekranni yorug' qilishingiz mumkin.
- [Cinema]: Ekranni videoning vizual effektlarini yaxshilash uchun optimallashtiradi.
- [Color Weakness]: Bu rejim qizil bilan yashilni farqlay olmaydigan foydalanuvchilar uchundir. U ranglarni farqlashi qiyin bo'lgan foydalanuvchilarga ushbu ikki rangni farqlay olishlariga imkon beradi.

! ESLATMA

- Agar [Picture Mode] DP (DisplayPort) kirishida o'zgartirilgan bo'lsa, ekran millitlashi yoki ShK ekrani tasvir aniqligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

HDR signalida [Picture Mode]

- [Custom]: Foydalanuvchiga har bir elementni sozlashga imkon beradi.
- [Vivid]: Ekranni HDR jonli ranglariga optimallashtirilgan.
- [Standard]: HDR standarti uchun ekranni optimallashtiriladi.
- [Cinema]: Ekranni video uchun optimallashtirilgan.

! ESLATMA

- Windows 10 OT parametrlariga qarab HDR kontent to'g'ri aks ettirilmasligi mumkin, Windows'dagi HDR Yoq/O'ch parametrlarini tekshiring.
- HDR funksiyasi yoqilgan vaqtda Video karta unumdorligiga qarab belgi yoki tasvir sifati yomon bo'lishi mumkin.
- HDR funksiya yoqilgan vaqtda Video karta unumdorligiga qarab monitor kirishini o'zgartirishda yoki yoqish/o'chirish vaqtida ekran titrashi yoki buzilishi mumkin.

[Settings] → [Picture] → [Picture Adjust]

- [Brightness]: Ekranning ravshanligini sozlaydi.
- [Auto Brightness]: Yon-atrof yoritilishiga qarab yorqinlikni avtomatik tarzda optimallashtiradi.
- [Contrast]: Ekranning kontrastini sozlaydi.
- [Sharpness]: Ekranning keskinligini sozlaydi.
- [SUPER RESOLUTION+]: Bu aniqligi past rasmlarning aniqligini oshirish uchun funksiya bo'lganligi sababli normal matn yoki ishchi stoldagi belgilar uchun funksiyadan foydalanish tavsiya qilinmaydi. Buni bajarish ortiqcha yuqori aniqlikka olib kelishi mumkin.
 - [High]: Ekranni kristalldan tiniq tasvirlar uchun optimallashtiradi. Yuqori aniqlikdagi video yoki o'yinlar uchun juda mos keladi.
 - [Middle]: Tasvirlar quyi va yuqori rejimlar o'rtasidagi o'rtacha darajada bo'lgani holda ekranni qulay ko'rish uchun optimallashtiradi. UCC yoki SD videolar uchun juda mos keladi.
 - [Low]: Ekranni silliq va tabiiy tasvirlar uchun optimallashtiradi. Harakatsiz tasvirlar yoki harakati kam bo'lgan tasvirlar uchun juda mos keladi.
 - [Off]: Eng umumiy parametrdan namoyish qiladi. [SUPER RESOLUTION+] ni o'chirib qo'yadi.
- [Black Level]: Vaqtini surish darajasini o'rnatadi (faqat HDMI uchun).
Vaqtini surish: video signal uchun ma'lumot tariqasida bu monitor ko'rsatishi mumkin bo'lgan eng to'q rang.
 - [High]: Ekrandagi joriy kontrast nisbatini saqlaydi.
 - [Low]: Ekrandagi joriy kontrast nisbatining qora darajalarni kamaytiradi va oq darajalarni ko'paytiradi.
- [DFC]: Ekranga ko'ra ravshanlikni avtomatik ravishda sozlaydi.

[Settings] → [Picture] → [Color Adjust]

- [Gamma]:
 - [Mode 1], [Mode 2], [Mode 3]: Gamma qiymati qanchalik baland bo'lsa, tasvir shunchalik qoraroq bo'ladi. Shu kabi gamma qiymati qanchalik past bo'lsa, tasvir shunchalik yorug'roq bo'ladi.
 - [Mode 4]: Agar gamma parametrlarini sozlashingiz kerak bo'lmasa, [Mode 4]ni tanlang.
- [Color Temp]: O'z rang haroratingizni o'rnatadi.
 - [Custom]: Foydalanuvchi qizil, yashil va ko'k ranglarni sozlashi mumkin.
 - [Warm]: Ekranning rangini qizg'ish tusga o'rnatadi.
 - [Medium]: Ekranning rangini qizil bilan ko'k rang oralig'ida o'rnatadi.
 - [Cool]: Ekranning rangini ko'kimtir rangga o'rnatadi.
- [Red], [Green], [Blue]: Siz tasvir rangini [Red], [Green] va [Blue] ranglardan foydalanib o'rnatishingiz mumkin.
- [Six Color]: Oltita rangning (qizil, yashil, ko'k, havo rang, to'q qizil va sariq) tusi va to'yinganligini boshqarib foydalanuvchining ranglar bo'yicha talablariga javob beradi va so'ng, sozlanmalarni saqlaydi.
 - Hue (Tus): Ekranning ranglarining tusini sozlaydi.
 - Saturation (To'yinganlik): Ekranning ranglarining to'yinganligini sozlaydi. Qiymati qanchalik kam bo'lsa, ranglar shunchalik kam to'yingan va yorug'roq bo'ladi. Qiymati qanchalik yuqori bo'lsa, ranglar shunchalik ko'p to'yingan va to'qroq bo'ladi.

[Settings] → [Picture] → [Response Time]

- [Response Time]: Ekranning tezligiga asoslanib ko'rsatilayotgan tasvirlar uchun javob berish vaqtini o'rnatadi. Oddiy muhit uchun [Fast]dan foydalanish tavsiya etiladi.
Tez harakatlanuvchi tasvir uchun [Faster] variantidan foydalanish tavsiya etiladi. [Faster] qiymatiga qo'yish qoldiq tasvir holatiga sabab bo'lishi mumkin.
 - [Faster]: Javob berish vaqtini [Faster] holatiga o'rnatadi.
 - [Fast]: Javob berish vaqtini [Fast] holatiga o'rnatadi.
 - [Normal]: Javob berish vaqtini [Normal] holatiga o'rnatadi.
 - [Off]: Xususiyatni o'chiradi.

[Settings] → [Picture] → [Picture Reset]

- [Do you want to reset your picture settings?]:
 - [Yes]: Birlamchi qiymatlariga qaytaradi.
 - [No]: Tanlovni bekor qiling.

[General]**[Settings] → [General]**

- [Language]: Ekran menyusini istagan tilga o'rnatadi.
- [SMART ENERGY SAVING]: Yorqinlik kompensatsiyasi algoritmidan foydalangan holda energiyani tejash.
 - [High]: Samaradorligi yuqori bo'lgan [SMART ENERGY SAVING] funksiyasi yordamida quvvatni saqlaydi.
 - [Low]: Samaradorligi past bo'lgan [SMART ENERGY SAVING] funksiyasi yordamida quvvatni saqlaydi.
 - [Off]: Xususiyatni o'chiradi.
 - Panel va panel ta'minotchisiga qarab quvvat tejash qiymati farq qilishi mumkin.
 - [SMART ENERGY SAVING] [High] yoki [Low] qiymatini tanlasangiz, manbaga qarab monitor yorqinligi yuqoriroq yoki pastroq bo'lishi mumkin.
- [Automatic Standby]: Ma'lum vaqt davomida ekranda harakat bo'lmagan vaqtda monitorni avtomatik ravishda o'chiruvchi xususiyat. Siz taymerni avtomatik o'chirish funksiyasi uchun o'rnatishingiz mumkin. ([Off], [4H], [6H] va [8H])
- [DisplayPort Version]:
 - [DisplayPort] / [USB-C]: DisplayPort versiyasini ulangan tashqi qurilma bilan bir xil versiyaga qo'ying. ([1.4], [1.2] va [1.1]) HDR funksiyadan foydalanish uchun [1.4]ga qo'ying.

- [HDMI ULTRA HD Deep Color]: ULTRA HD Deep Color-ni qo'llab-quvvatlaydigan qurilmaga ulanganda tiniqroq tasvirlar bilan ta'minlaydi.
 - [HDMI ULTRA HD Deep Color]'dan foydalanish uchun ushbu funksiyani yoqing qiymatga qo'ying.
 - Ulangan qurilma Deep Color'ni qo'llab-quvvatlamasa, ekran yoki ovoz to'g'ri ishlamasligi mumkin. Bu holatda ushbu funksiyani O'chirilgan qiymatiga qo'ying.

4K@ 60 Hz qo'llab-quvvatlanadigan format

Piksellar soni: 3840 x 2160

Kadr tezligi (Hz): 59,94/60,00

Rang chuqurligi / Rang darajasi namunasi:

8 bitli, 10 bitli → YCbCr 4:2:0 / YCbCr 4:2:2

8 bitli → YCbCr 4:4:4 / RGB 4:4:4

- [Buzzer]: Bu xususiyat monitor Yoq yoki O'ch qiymatiga qo'yilganda [Buzzer]dan hosil qilinadigan tovushni o'rnatishingizga imkon beradi.
- [OSD Lock]: Bu xususiyat konfiguratsiya va sozlash menyularini o'chirib qo'yadi.
- [Deep Sleep Mode]: [Deep Sleep Mode] yoqilgan vaqtda monitor kutish rejimida bo'lganda, quvvat sarfi minimallasadi.
 - Kutish rejimida [Deep Sleep Mode] yoqilgan vaqtda USB orqali zaryadlash va Uya funksiyalari ishlamaydi.
- [Information]: Display haqida quyidagi ma'lumotlari ko'rsatiladi; [Serial Number], [Total Power On Time], [Resolution].

[Settings] → [General] → [Reset to Initial Settings]

- [Do you want to reset your settings?]:
 - [Yes]: Birlamchi qiymatlariga qaytaradi.
 - [No]: Qayta tiklashni bekor qilish.

NOSOZLIKLARNI TUZATISH

Displayda hech narsa ko'rsatilmaydi.

- Monitoring elektr manbaiga ulash shnuri ulanganmi?
 - Quvvat manbaiga ulash shnurining rozetkaga to'g'ri ulanganligini tekshiring.
- [No Signal] xabari ko'rsatilmoqdami?
 - Bunday xabar kompyuter bilan monitor o'rtasidagi signal kabeli ulanmagan yoki unda signal yo'qligida ko'rsatiladi. Kabelni tekshiring va uni qayta ulang.
- [Out of Range] xabari ko'rsatilmoqdami?
 - Bu ShK (videokarta)dan uzatilayotgan signallar monitoring gorizontali yoki vertikal chastotasi diapazonidan tashqarida bo'lganda yuz beradi. Iltimos, tegishli chastotani belgilash uchun ushbu qo'llanmaning Mahsulot xususiyati bo'limini ko'ring.

Display ekrani mustahkam emas va tebranib turadi. / Monitorda namoyish etilgan tasvirlar soyali izlar qoldirmoqda.

- Piksellar sonini to'g'ri tanlaganmisiz?
 - Agar tanlangan piksellar soni HDMI 1080i 60/50 Hz (tutashgan) bo'lsa, ekran miltillab ishlashi mumkin. Piksellar sonini 1080p yoki talab etilganga o'zgartiring.
 - Videokartani tavsiya etilgan (optimal) piksellar soniga o'rnatmaslik, matnning noaniqligi, ekran xiralanishi, tasvir yuzasining kesilishi yoki tasvirning noto'g'ri joylashuviga olib kelishi mumkin.
 - Kompyuter yoki operatsion tizimga bog'liq bo'lib, sozlash usullari turlicha bo'lishi mumkin, va videokartaning xususiyatlariga bog'liq ravishda ba'zi piksellar soni mavjud bo'lmashligi mumkin. Bunday hollarda yordam uchun kompyuter yoki videokarta ishlab chiqaruvchisiga murojaat qiling.
- Monitor o'chirilganda tasvir saqlanib qolmoqdami?
 - Harakatsiz tasvirlarni uzoq vaqt davomida aks ettirish tasvirning saqlanishi natijasida ekranning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
 - Monitoring ishlatish muddati davomiyligini cho'zish uchun ekran qo'riqchisidan foydalaning.
- Ekranda dog'lar mavjudmi?
 - Monitordan foydalanganda (qizil, yashil, ko'k, oq yoki qora) nuqtali dog'lar paydo bo'lishi mumkin. LCD (Suyuq Kristalli Display) ekrani uchun bu oddiy holdir. Bu xato ham emas, monitoring ishlashiga ham tegishli emasdir.

Ayrim xususiyatlar o'chirib qo'yilgan.

- Menyuga tugmasini bosganda ba'zi funksiyalar mavjud emasmi?
 - Display qulflangan. [General] menyusida [OSD Lock]ni o'chiring.

“Tanilmagan monitor, Plug and Play (VESA DDC) monitori topildi” xabarini ko'rayapsizmi?

- Display drayverini o'rnatganmisiz?
 - Drayverlar veb-saytimizdan o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling: <http://www.lg.com>.
 - Videokarta Plug and Play funksiyasini qo'llab-quvvatlashini tekshirish yoddan chiqmasin.

Naushnikdan ovoz chiqmayapti.

- Tasvirlar tovushsiz ko'rsatilmoqdammi?
 - Naushnik porti ulanishlari to'g'ri bajarilganligiga ishonch hosil qiling.
 - Joystik yordamida ovoz balandligini ko'tarib ko'ring.
 - ShKning audio chiqishini foydalanayotgan monitorga sozlang: (Parametrlar siz foydalanayotgan operatsion tizimga qarab farq qilishi mumkin.)

4K/5K aniqlik darajasi mavjud emas.

- Kabel ulanishini tekshiringizmi?
 - Kabeli to'g'ri ulanganligini tekshiring.
 - Mahsulot bilan birga taqdim etilgan aksessuarlardan foydalanish tavsiya etiladi.
- Aniqlik darajasi va yangilash tezligi to'g'ri o'rnatilganmi?
 - ShK ekran aniqlik darajasi parametrlarida yoki pleyerning xususiyatlar menyusida to'g'ri aniqlik darajasi va yangilash tezligini o'tnating.
- Ulangan tashqi qurilma 4K/5K aniqlik darajasini qo'llab-quvvatlaydimi?
 - U faqat 4K/5K aniqlik darajasini qo'llab-quvvatlaydigan tashqi qurilmalarda mavjud.
 - Ulangan tashqi qurilma 4K/5K aniqlik darajasini qo'llab-quvvatlashini tekshiring.
- [HDMI ULTRA HD Deep Color] funksiyasi yoqilganmi? (4K holatida)
 - Funksiyani yoqish uchun [Settings] > [General] > [HDMI ULTRA HD Deep Color] funksiyasiga o'ting.
- [DisplayPort Version] [1.4] qiymatiga qo'yilganmi? (5K holatida)
 - [1.4] versiyaga qo'yish uchun [Settings] > [General] > [DisplayPort Version] o'ting.

MAHSULOT XUSUSIYATI

Xususiyatlar ogohlantirishsiz o'zgartirilishi mumkin.

Rang chuqurligi: 8-bitli/10-bitli rang qo'llab-quvvatlanadi.

Piksellar soni:

- HDMI
 - Piksellarning maksimal soni: 3840 x 2160 @ 60 Hz
 - Tavsiya etilgan piksellar soni: 3840 x 1080 @ 60 Hz
- DisplayPort / USB-C
 - Piksellarning maksimal soni: 5120 x 1440 @ 60 Hz
 - Tavsiya etilgan piksellar soni: 5120 x 1440 @ 60 Hz

Atrof-muhit sharoitlari:

- Ishlash sharoitlari
 - Harorat: 0 °C dan 40 °C gacha
 - Namlik: Quyidagidan kam 80 %
- Saqlash sharoitlari
 - Harorat: -20 °C dan 60 °C gacha
 - Namlik: Quyidagidan kam 85 %

O'lchamlari: Monitor o'lchamlari (Eni x Balandligi x Chuqurligi)

- Tayanch bilan: 1215,1 x 543,5 x 307,3 (mm)
- Tayanchsiz: 1215,1 x 365,7 x 114,2 (mm)

Og'irligi (Upakovkasiz):

- Tayanch bilan: 15,2 (kg)
- Tayanchsiz: 12,6 (kg)

Elektr quvvat manbalari:

- Kuchlanish: AC 100 - 240 V, 50/60 Hz, 2,5 A
- Quvvat iste'moli:
 - Ish rejimi: 80 W (Oddiy)*
 - Uyqu rejimi: ≤ 1,0 W (HDMI / DP kirish Sharti)**
 - O'chirish rejimi: ≤ 0,3 W

* Quvvat iste'molining Ish rejimi LGE test standarti bilan o'lchanadi. (To'liq oq namuna, Maksimal tasvir aniqligi)

* Quvvat iste'moli darajasi ishlatish sharoiti va monitor parametriga qarab har xil bo'lishi mumkin.

** USB-C orqali kiritilganda, ulangan qurilmaga qarab Uyqu rejimining quvvat sarflashi farq qilishi mumkin.

** Monitor bir necha daqiqadan so'ng uyqu rejimiga qo'yiladi. (Ko'pi bilan 5 daqiqa)

Zavod qo'llab-quvvatlash rejimi (Dastlabki rejim, ShK)


DisplayPort / USB-C

Dastlabki rejim	Gorizontal chastota (kHz)	Vertikal chastota (Hz)	Qarama-qarshilik G/V	Izoh
640 x 480	31,469	59,94	-/-	
800 x 600	37,879	60,317	+/+	
1024 x 768	48,363	60	-/-	
1152 x 864	54,347	60,05	+/+	
1280 x 720	45	60	+/+	
1280 x 800	49,702	59,81	-/+	
1280 x 1024	63,981	60,02	+/+	
1280 x 1440	91,79	60	+/-	3PBP
1600 x 900	60	60	+/+	
1680 x 1440	67,5	60	+/-	2PBP-B2
1920 x 1080	67,5	60	+/+	
2560 x 1080	70,2	60	+/-	
2560 x 1440	91,79	60	+/-	2PBP-A
3440 x 1440	91,79	60	+/-	2PBP-B1
3840 x 1080	70,2	60	+/+	
3840 x 2160	66,66	30	+/-	
3840 x 2160	133,31	60	+/-	
5120 x 1440	43,83	30	+/-	
5120 x 1440	88,86	60	+/-	- DP/ USB-C afzal ko'rilgan vaqt - SINGLE

HDMI

Dastlabki rejim	Gorizontal chastota (kHz)	Vertikal chastota (Hz)	Qarama-qarshilik G/V	Izoh
640 x 480	31,469	59,94	-/-	
800 x 600	37,879	60,317	+/+	
1024 x 768	48,363	60	-/-	
1152 x 864	54,347	60,05	+/+	
1280 x 720	45	60	+/+	
1280 x 800	49,702	59,81	-/+	
1280 x 1024	63,981	60,02	+/+	
1280 x 1440	91,97	60	+/+	3PBP
1600 x 900	60	60	+/+	
1680 x 1440	91,79	60	+/-	2PBP-B2
1920 x 1080	67,5	60	+/+	
2560 x 1080	70,2	60	+/+	
2560 x 1440	44,43	30	+/-	
2560 x 1440	88,79	60	+/-	2PBP-A
3440 x 1440	74,04	49,99	+/-	
3440 x 1440	88,85	59,99	+/-	2PBP-B1
3840 x 1080	35,1	30	+/+	
3840 x 1080	58,5	50	+/+	
3840 x 1080	70,2	60	+/+	- HDMI afzal ko'rilgan vaqt - SINGLE

Izoh



HDMI Vaqtini belgilash (Video)

Dastlabki rejim	Gorizontaal chastota (kHz)	Vertikal chastota (Hz)
480p	31,5	60
720p	45	60
1080p	67,5	60
2160p	135	60



Mahsulotning rusumi va seriya raqami mahsulotning orqa paneli va yon tomonida ko'rsatilgan.

Xizmat ko'rsatish zarur bo'lgan holatlar uchun ularni quyida yozib qo'ying.

Modeli

Seriya raqami

(49WL95C-WE)



This Product qualifies for ENERGY STAR®

Changing the factory default configuration and settings or enabling certain optional features and functionalities may increase energy consumption beyond the limits required for ENERGY STAR® certification.

Refer to ENERGYSTAR.gov for more information on the ENERGY STAR® program.